

QADIMGI XITOIY TILIGA OID KO‘RSATISH OLMOSHLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-71-76>

Turdimuradova Nilufar Baxrom qizi

Xitoyshunoslik fakulteti, Lingvistika (xitoy tili) yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: PhD **F.M.Hasanova**

Annotatsiya. *Xitoy tilida ko‘rsatish olmoshlari uzoq yillik tarixiy ildizlarga ega. Mumtoz adabiyotlarda qo‘llangan ko‘rsatish olmoshlari o‘zlarining venyanizmga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy xitoy tili – putunxuada, odatda, ushbu ko‘rsatish olmoshlarning muqobillari qo‘llansada, rasmiy, badiiy, publitsistik uslublarda hali ham ularni tez-tez uchratish mumkin. Ushbu maqola doirasida turli tarixiy manbalardan keltirilgan misollar asosida qadimgi xitoy tiliga oid ko‘rsatish olmoshlarining bir nechta tahlili amalga oshiriladi hamda ularning leksik-sintaktik o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada qadimgi xitoy tiliga oid ko‘rsatish olmoshlarining bugungi kundagi iste‘mol imkoniyatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar ham taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: ko‘rsatish olmoshi, venyan, bog‘lama, aniqlovchi, sinonim, antonim

Abstract. *In Chinese demonstrative pronouns have a long history. Demonstrative pronouns used in classical literature are distinguished by their features related to Wenyan. In modern Chinese, Putonghua, although the show usually uses alternatives to rhymes, they are still common in formal, artistic, and journalistic styles. This article analyzes several of the demonstrative pronouns of ancient Chinese based on examples from various historical sources and examines their lexical and syntactic features. The article also provides information on the current use of demonstrative pronouns in ancient Chinese.*

Keywords: demonstrative pronoun, Wenyan, copulative conjunction, determiner, synonym, antonym

Til ijtimoiy hodisa o‘laroq jamiyat bilan birga shakllanadi va rivojlanadi. Xitoy tili ham o‘zining uzoq yillik tarixi davomida bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Xususan, ko‘rsatish olmoshlari xitoy tilida anchayin qadimiy ildizlarga ega. Tarixiy manbalarga nazar solsak, Konfutsiy, Lao Szi, Meng Szi kabi Qadimgi Xitoyning buyuk faylasuflari nutqlarida ko‘rsatish olmoshlarining o‘nga yaqin turlaridan faol foydalanilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Qadimgi xitoy tilida yozilgan

aynan mana shu manbalar bizga ko‘rsatish olmoshlarining lingvistik tadqiqotini atroflicha amalga oshirish imkonini beradi.

III-V asrlarda qadimgi xitoy tili leksikasida 彼 bǐ “o‘sha, ana u”, 此 cǐ “bu”, 是 shì “bu, mana bu” kabi ko‘rsatish olmoshlari faol muomalada bo‘lgan¹. Ular gapda, asosan, aniqllovchi, ega, ba‘zan to‘ldiruvchi, kesim va hol vazifasini bajargan.

Bu davrda 彼 bǐ uzoqdagi predmetni ko‘rsatish uchun qo‘llanib, odatda, 3-shaxsga ishora qilgan. Masalan:

彼民 anavi xalq, o‘sha odamlar

彼四人 anavi (o‘sha) to‘rt kishi

陟彼南山 anavi (o‘sha) janubiy tog‘ga ko‘tarilish

瞻彼小星 porlab turgan anavi kichik yulduzchalar

客亦知夫水与月乎？逝者如斯，而未尝往也。盈虚者如彼，而卒莫消长也。²

Suv va oyni bilasizmi? Bu daryoga o‘xshab davom etaveradi, lekin o‘z-o‘zidan yo‘qolmaydi. Yumaloq-qisqa bo‘lgan narsa o‘sha oyga o‘xshaydi, lekin oxir-oqibat ko‘paymaydi, kamaymaydi.

Keyinroq unga qarama-qarshi ma‘noni ifodalash uchun 此 cǐ olmoshi paydo bo‘lgan. Shuningdek, ular birgalikda konstruksiya shaklida ham ishlatilgan. Masalan:

彼一时，此一时 u paytlar boshqa edi, hozir boshqa.

于彼 ... , 于此 ... u yerda ... , bu yerda ...

见彼而不见此 uni ko‘rib, buni ko‘rmaslik

由是观之，在彼不在此³

Shu nuqtai nazardan, u bu erda emas, balki u yerda.

此 cǐ yozma nutq uslubiga xos bo‘lgan yana bir ko‘rsatish olmoshi bo‘lib, hozirgi 这，这个 ko‘rsatish olmoshlarining qadimgi xitoy tilidagi muqobili hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy xitoy tili leksikasida 此 cǐ ko‘rsatish olmoshi, asosan, vaqtga ishora qiluvchi so‘zlar bilan birgalikda ishlatiladigan barqaror birikmaga aylanib qolgan. Masalan: 如此 — shu tarzda, shunday qilib; 此外 — bundan tashqari; 此次 — bu gal, shu safar; 此时 — shu paytda; 此间 — bu yerda; 从此 — shundan buyon; hozirdan boshlab; 由此 — bundan; 此刻 — shu paytda; 此后 — shundan

¹ И. С. Гуревич. И. Т. Зюгаф. Хрестоматия по истории китайского языка III-XV вв. Москва. Наука. 1982

² 苏轼《赤壁赋》。1082 年

³ 司马迁《酷吏列传序》

keyin; 此事 — bu masala; 以此 — bu bilan; 对此 — bu xususda; 至此 — shu vaqtgacha, haligacha; 此前 — bundan oldin; 因此 — shu sababli;

此 cǐ va 该 gāi olmoshlari o‘zaro sinonim olmoshlar hisoblanadi. Lekin ular ma’lum bir farqlarga ega. Ya’ni, 此 cǐ so‘zlovchiga aloqador predmetga ishora qilganda, 该 gāi esa aksincha so‘zlovchiga aloqasi bo‘lmagan predmetni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Shuningdek, zamonaviy xitoy tilida 该 gāi rasmiy uslubga xos bo‘lib, asosan, hujjatlarda qo‘llanadi va o‘zbek tiliga “yuqorida ta’kidlangan”, “mazkur”, “ushbu” kabi ma’nolarda tarjima qilinadi. Masalan:

该校是所重点中学。

Ushbu maktab asosan o‘rta maktabdir.

斯 sī fonetik jihatdan 此 cǐ olmoshi bilan o‘xshash bo‘lgani sababli o‘zaro almashib qo‘llash holatlari ham kuzatiladi. Masalan, 斯世 = 此世 bu dunyo, bu zamon; 斯人 = 此人 bu odam.

斯言之玷。⁴ *Bu gaplar uning shaniga dog‘ tushurdi.*

斯人也，而有斯疾也。⁵ *Bu (yaxshi) odam qanday qilib bunday (yomon) kasallikka duchor bo‘lishi mumkin?*

是 shì ko‘rsatish olmoshi sifatida, asosan, yozma uslubda qo‘llanadi va mumtoz adabiyotga oid matnlarda uchraydi va gapda aniqllovchi vazifasini bajaradi. Masalan:

子于是日哭，则不歌。⁶

Konfutsiy bu kuni g‘am chekib yig‘ladi, qo‘shiq ham aytmadi.

是 shì olmoshi gapda bir vaqtning o‘zida ikki xil funksiyani bajarishi mumkin, ya’ni u ham olmosh ham bog‘lama bo‘lib kela oladi. Gapda u kesimni shakllantirish vazifasini bajaradi. Masalan:

以不教民战，是谓弃之也。

Odamlarni kurashishga o‘rgatmaslik – bu undan (kurashdan) voz kechishdir.

恶辱而居不仁，是犹恶湿而居下也。⁷

Xo‘rlikdan nafratlanib turib yana toshbag‘irlik qilish – bu xuddi namlikdan nafratlanib, pastqam joylarda yashash bilan barobardir.

⁴ 《诗·大雅·抑》

⁵ 孔子《论语·雍也第六》

⁶ 孔子《论语·述而》

⁷ 孟子《滕文公》

其 qí gapda, asosan, xoslikni, egalikni bildiruvchi olmosh vazifasida keladi. Biroq uning ko‘rsatish olmoshi sifatida qo‘llanish o‘rinlari ham mavjud. Bunda u 这, 这样 kabi ko‘rsatish olmoshlariga sinonim bo‘ladi. Masalan:

我国工业有许多突击工作人员, 而农业战线上也不乏其人。

Bizning sanoatimizda ko‘plab tezkor ishchilar mavjud, bunday ishchilar qishloq xo‘jaligi frontida ham talaygina.

查无其事岂、难道? ⁸

Tekshiruvlar davomida bu dalillar tasdiqlanmadimi? Nahotki?

之 zhī ko‘rsatish olmoshi shaxs va narsaga yoki vaziyatga ishora qiladi, hozirgi xitoy tilidagi ham “这个“, ham “那个” olmoshlariga sinonim bo‘lib kelishi mumkin. Inkor ma‘noni ifodalovchi konstruksiyalarda 之 zhī inkor so‘z va fe‘l o‘rtasiga qo‘yiladi. Misollar:

我未之见也。 ⁹ Men **buni** ko‘rmaganman.

民莫之令而自均。 ¹⁰ Xalqqa **buni** buyurmasang ham o‘zi tinchlanadi.

宣王说之。 ¹¹ Qirol Syuan **shuni** aytdi (之 bu yerda sarkarda Nan Guochuning hujumi voqeasiga ishora qiladi).

虎因喜, 计之曰。 ¹² Yo‘lbars xursandligi sabab **buni** aytmoqchi bo‘ldi (bu yerda 之 yordamida yuqoridagi aytib o‘tilgan eshak g‘azablanganida tepishi haqidagi vaziyat nazarda tutilgan).

当分明记之。 ¹³ **Buni** aniq eslab qolganda (bu yerda 之 birgalikda o‘qish jarayoniga ishora qiladi).

为之, 则难者亦易矣。 ¹⁴ **Bu** uchun qiyin ishlar ham oson (之 dunyo ishlariga ishora qilmoqda).

Bulardan tashqari, tilshunoslikka oid manbalarda xitoy tilida 每、各、某、本、另、别的、其他、其余 kabi so‘zlarning ham ko‘rsatish olmoshlari o‘rnida qo‘llanish holatlari¹⁵ haqida ma‘lumotlar beriladi.

⁸ 左传·中·先秦时期

⁹ 孔子《论语》

¹⁰ 老子《道德经(第三章)》

¹¹ 韩非子《内储说上》

¹² 柳宗元《三戒》

¹³ 袁枚《祭妹文》

¹⁴ 彭端淑《为学一首示子侄》

¹⁵ 现代汉语: 下册/黄伯荣, 廖序东主编.--增订六版.--北京: 高等教育出版社, 2017.

Yuqorida keltirilgan misollarga tayanib xulosa qilish mumkinki, ko'rsatish olmoshlari xitoy tilshunosligida juda chuqur ildizlarga ega. Qolaversa, ularning miqdori hozirgi zamonaviy xitoy tilida mavjud bo'lgan ko'rsatish olmoshlariga qaraganda ancha ko'p bo'lgan. Qadimgi yozma manbalardan bo'lgan Konfutsiy, Lao Szi kabi buyuk faylasuflarning hikmatlari va nutqlarida ko'rsatish olmoshlariga ko'p marotaba murojaat qilinishining sababi shundaki, ular nafaqat so'z yoki so'z birikmasining balki butun boshli gapning ham o'rnida qo'llanilib, mazmunni qisqa va ixcham ifodalash imkonini bera oladi.

REFERENCES

1. И. С. Гуревич. И. Т. Зограф. Хрестоматия по истории китайского языка III-XV вв. Москва. Наука. 1982
2. Hasanova, F. (2020). ЯЗЫКИ НАРОДОВ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ЕВРОПЫ, АЗИИ, АФРИКИ, АБОРИГЕНОВ АМЕРИКИ И АВСТРАЛИИ (С УКАЗАНИЕМ КОНКРЕТНОГО ЯЗЫКА ИЛИ ЯЗЫКОВОЙ СЕМЬИ). *Главный редактор*, 31.
3. Karimov, A., & Khasanova, F. The Impact of Ancient Chinese on Baihua Language.
4. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76-81.
5. Назарова, С. А. (2021). МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: УРОВЕНЬ СФОРМИРОВАННОСТИ И РЕЗУЛЬТАТЫ КОНСТАТИРУЮЩЕГО СРЕЗА СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ (КИТАЙСКИЙ ЯЗЫК). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 147-155. 9.
6. Мавлянова, У.Х. СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ЧИСЛИТЕЛЬНОЕ» В КАТЕГОРИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ // *ORIENSS*. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-ponyatiya-chislitelnoe-v-kategorii-chastey-rechi-v-sovremennom-kitayskom-yazyke> (дата обращения: 30.03.2022).
7. Юсупова, Хилола Саъдулла Қизи ҲОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИДА ОТ ТУРКУМИГА ОИД СЎЗЛАРНИНГ СЎЗ ҚЎШИШ УСУЛИНИНГ БОҒЛОВЧИ МОДЕЛИ АСОСИДА ЯСАЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ // *ORIENSS*. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ozirgi-hitoy-tilida-ot-turkumiga-oid-sozlar-ninng-soz-qoshih-usulini-nig-boglovchi-modeli-asosida-yasali-hususiyat-lari>

turkumiga-oid-s-zlarning-s-z-shish-usulining-bo-lovchi-modeli-asosida-yasalish-hususiyatlari (дата обращения: 30.03.2022).

8. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 汉语语音及它的教学问题 (乌兹别克斯坦学生为例). *Современные востоковедческие исследования*, 3(1), 6-13.
9. Артикова, З. З. (2021). LEXICO FEATURES OF THE PIECE COUNTING WORD 把 ВЃ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 113-118.
10. 现代汉语：下册/黄伯荣，廖序东主编.--增订六版.--北京：高等教育出版社，2017.6（2018.1 重印）